



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2025-YIL YANVAR-FEVRAL
OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel: 73-241-96-28
www.farstat.uz

Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2025-yil 1-mart holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 5 811 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 675 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,6 %i) Farg'ona shahriga, 653 tasi (11,2 %) Qo'qon shahriga, 545 tasi (9,4 %) Marg'ilon shahriga, 458 tasi (7,9%) Uchko'prik tumaniga va 354 tasi (6,1 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2025-yil 1-mart holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
Jami:	5 811	199	100,0
Farg'ona sh.	675	18	11,6
Qo'qon sh.	653	9	11,2
Quvasoy sh.	167	8	2,9
Marg'ilon sh.	545	12	9,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	250	5	4,3
Qo'shtepa	239	29	4,1
Bag'dod	277	15	4,8
Buvayda	219	8	3,8
Beshariq	160	10	2,8
Quva	241	4	4,1
Uchko'prik	458	10	7,9
Rishton	290	4	5,0
So'x	176	13	3,0
Toshloq	237	14	4,1
O'zbekiston	354	12	6,1
Farg'ona	198	4	3,4
Dang'ara	319	6	5,5
Furqat	161	12	2,8
Yozyovon	192	6	3,3



Fargʻona viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari


Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5 736,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi *104,2% ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik koʻrsatkichlari oʻsish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oʻsayotganligini koʻrsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 398,1 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.



2025-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 5 268,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,8% ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **17,8** mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3** % ini tashkil etdi.



Yanvar-fevral

2023-y	11,2 mlrd soʻm
2024-y	14,5 mlrd soʻm
2025-y	17,8 mlrd soʻm

FHI, % da

2023-y	55,4 %
2024-y	107,1 %
2025-y	48,2 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **5 268,6** mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **91,8** % ini tashkil etdi.

Yanvar-fevral

2023-y	3 302,7 mlrd soʻm
2024-y	4 101,4 mlrd soʻm
2025-y	5 268,6 mlrd soʻm

FHI, % da

2023-y	98,2 %
2024-y	91,8 %
2025-y	103,3 %





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi			Avtomobil benzini			Makaron mahsulotlari		
2025	→	52,5	2025	→	43,3	2025	→	109,6
2024	→	111,8	2024	→	90,6	2024	→	169,4
2023	→	143,7	2023	→	2,2 m.	2023	→	43,0
O'simlik yog'i (tozalangan)			Portlandsement			Yumshoq bug'doy va spelta uni		
2025	→	0	2025	→	60,6	2025	→	102,5
2024	→	88,4	2024	→	152,9	2024	→	105,0
2023	→	56,7	2023	→	31,0	2023	→	88,8
Neft bitumi			Aroq ming litr (100% spirt)			Uzum vinosi		
2025	→	71,2	2025	→	196,3	2025	→	68,3
2024	→	89,7	2024	→	62,7	2024	→	169,8
2023	→	4,5 m.	2023	→	169,1	2023	→	55,1
Yoqilg'i moyi			Paxta chigiti			Paxta linti		
2025	→	63,8	2025	→	105,8	2025	→	118,0
2024	→	3,4 m.	2024	→	109,6	2024	→	123,2
2023	→	45,8	2023	→	100,2	2023	→	100,5

2025-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 25,4 ming tonna avtomobil benzini (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 43,3%ni tashkil etgan), 35,3 ming tonna dizel yoqilg'isi (52,5%ni), 18 535,1 tonna paxta iplari mahsulotlari (99,4%ni) hamda 4 408,5 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar 179,2% ni tashkil etgan) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	58,7	25,4	-33,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	47,1	48,2	1,1
Paxta chigiti, ming t	28,9	30,4	1,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	1,4	0	-1,4

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,3 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 35,6% (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,5% (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,3 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5 %) ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 %ni (2024-yilning yanvar-fevral oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 13,5 % (11,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,3% (22,8%) va quyi texnologiyalisi – 58,4% (57,0%)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2025-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 49,9 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 143,7 % ni tashkil etgan.


2024-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 25,1 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,6% ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 174,0 % ga koʻpaydi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 691,2 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,4 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2025-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,4 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 858,7 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 81,8 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 3,6 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 175,1% ni va ishlab chiqarish hajmi 31,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-fevral oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,8 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,3 % ga kamaygan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2025-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,1% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 104,5 %ga o'sgan holda ishlab chiqarish hajmi 1693,5 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 12,9 % ga ko'paygan.




Kiyim ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6%, fizik hajm indeksi 77,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 240,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,5 %ni, fizik hajm indeksi esa 117,2 % ni tashkil etgan.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2025-yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,8 %ni, fizik hajm indeksi 103,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 359,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,1 %ni fizik hajm indeksi esa 76,1 %ni tashkil etgan.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 6,7 %ni, fizik hajm indeksi 109,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 353,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,7 %ni fizik hajm indeksi esa 119,5% ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2025-yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 %ni, fizik hajm indeksi 127,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 175,3 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni fizik hajm indeksi esa 147,7 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,1 %ni, fizik hajm indeksi 113,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 65,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %ni fizik hajm indeksi esa 142,7 % ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 %ni, fizik hajm indeksi 90,5 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 136,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 %ni fizik hajm indeksi esa 114,1 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1%, fizik hajm indeksi 111,1 %ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 218,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 %ni fizik hajm indeksi esa 2,9 marttaga ko'paygan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2025-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 400,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 %ini) tashkil etadi.


2025-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	59,3	61,7	2,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	273,6	289,8	16,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,1 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	33,6	34,1	0,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	32,0	5,3	-26,7


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 34,1 mlrd so'm yoki 0,5 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,3 mlrd so'm va 6,0 martaga kamaygan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 248,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 21,8 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2024-yil yanvar-fevral




2025-yil yanvar-fevral




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.soʻm)da

2024-yil yanvar-fevral



Xorijiy korxonalar
Boshqa korxonalar

2025-yil yanvar-fevral




Xorijiy korxonalar
Boshqa korxonalar

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
2025-yilning yanvar-fevral oylarida
(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 265,6 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,3 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat
mahsulotlari hajmidagi
ulushi,
% da**



**Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd soʻm)**

